



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TJO RAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

**KENGASH YI'G'ILISHINING MAJLIS
BAYONIDAN KO'CHIRMA**

Toshkent shahri

№ 2025/23

2025 yil 26 avgust

Yig'ilish raisi:

O. Isakov (shaxsan)

Ishtirokchilar:

Kengash a'zolari:

U. Muxtarov (masofadan)

M. Atajanov (masofadan)

Y. Ayzup (masofadan)

U. Ahmedov (shaxsan)

S. Djarbolova (shaxsan)

F. Tuinstra (masofadan)

O. Ulyanova (shaxsan)

G. Chiladze (shaxsan)

Korporativ maslahatchi

K. Alimov

Taklif etilganlar:

Boshqaruv raisi

A. Akbarjonov

Boshqaruv a'zolari:

A. Ergashev, Sh. Yakubov.

Bankning bosh ofisi tarkibiy bo'linmalari
rahbarlari

F. Abdurahmonov, N. Xusanov.

Yig'ilishda Kengashning 9 nafar a'zosi ishtirok etdi va Kengash majlisi kvorumi ta'minlandi. **Kengash majlisining kun tartibi:**

1. "SQB Insurance" aksiyadorlik sug'urta kompaniyasining 100 foiz aksiyalarini Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga (AUGA) o'tkazish to'g'risida.

QAROR QILDI:

1. O'zbekiston Respublikasi xususiylashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo'yicha Davlat komissiyasi qaroriga muvofiq Bankning "SQB Insurance" Sug'urta

kompaniyasi AJdagi 100 foiz aksiyalarini keyinchalik sotish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga topshirish masalasini quyidagi shartlar bilan tasdiqlansin:

- Aksiyalarni bozor qiymati bo'yicha realizatsiya qilishdan tushgan mablag'larni (realizatsiya bilan bog'liq xarajatlar chegirilgandan so'ng) to'liq hajmda Bankka o'tkazish;

- Bankning "SQB Insurance" Sug'urta kompaniyasi AJdagi 100 foiz aksiyalarini O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga topshirish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan xalqaro moliya institutlarining roziligi (waiver) olingan taqdirda amalga oshiriladi; bu rozilik O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Osiyo taraqqiyot banki bilan tuzilgan kelishuvlarning talab va shartlariga muvofiq bo'lishi shart;

- "SQB Insurance" Sug'urta kompaniyasi AJ aksiyalari Bankdan Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga topshirilganda, topshirilgan aksiyalarning topshirish paytidagi balans qiymati miqdorida bank balansida Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Bank oldidagi debitorlik qarzdorligi sifatida aks ettirilishi;

- Sug'urta biznesi istiqbolli va rivojlanib borayotgan yo'nalish hisoblanishi, shuningdek, Bank tomonidan mustaqil ravishda rivojlantirilishi mumkinligini inobatga olib, Bank Boshqaruviga (Investitsion banking departamenti) 2025 yil 20 sentabrga qadar sho'ba kompaniyadan Bankka sug'urta xizmatlarini sotish bo'yicha tajribani o'tkazish va asosiy mutaxassislarni saqlab qolish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish topshirilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a'zo, shu jumladan

"Ma'qul" – 9 ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q

Korporativ maslahatchi

K. Alimov

Kotib

D. Abduqodirov

Bayonnoma rasmiylashtirilgan sanasi 2025 yil " 2 " sentabr.